

**ЎZBEKISTONDA BOZOR IQTISODIYOTINI SHAKLLANISHI HAMDA SSR IQTISODIYOTI VA  
HOZIR.ЎZBEKISTON MUSTAQILLKKA ERISHGANDAN SŌNG!!!**

**Shoydulova Maftuna Zafar qizi**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti 1i22-guruh talabasi  
93 135 62 21*

**Yŏldoshev Bahodir Őrozmamat Őgli**

*tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti 1i22-guruh talabasi  
91 228 12 25*

**Ravshanov Doniyor**

*Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti 1i22-guruh talabasi  
91 427 58 43*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Őzbekistonda bozor iqtisodiyotini shakllantirish hamda ushbu jarayonda uchrayotgan qiyinchiliklar va ularni yengib Őtish yŏllari haqida sŏz yuritiladi. Bundan tashqari oxirgi yillardagi Őzbekiston statistikasi hamda uning yillik YAIM larini solishtirish, aholini Őlim darjasi va tuĝulish darajalari, SSR davridagi Őzbekiston va hozir haqida sŏz va fikr yuritiladi hamda ularning natijalaridan xulosa chiqariladi.

**sŏz:** Bozor, iqtisodiyot, modernizatsiya,, diversifikatsiya, ishsizlik, qashshoqlik, YAIM, YAHM, renessans, demokratik, revolyutsion, evolyutsion, ijtimoiy, xŏjalik, sanoat, daromad taqsimot, bozor iqtisodiyotini modernizatsiyalash, mamuriy buyruqbozlik, monopoliya, raqobat, moliya, makroiqtisodiy, raqobat, mulkchilik.

**Bozor iqtisodiyotiga oĝtish davri maĝmuriy-buyruqbozlik tizimini bartaraf etish yoki tubdan oĝgartirish hamda bozor tizimining asoslarini shakllantirish jarayonlari amalga oshiriluvchi tarixiy davrdir.** 1980-1990 yillarga kelib dunyoda roĝy bergan muhim oĝzgarishlar iqtisodiy taraqqiyot istiqbollari toĝgĝrisidagi nazariyalarni qaytadan koĝrib chiqish va ularga jiddiy oĝgartirishlar kiritishni zarur qilib qoĝydi. Bu vaqtga kelib koĝpgina rivojlangan mamlakatlarning tajribalari umumlashtirilib, iqtisodiyotning yangi taraqqiyot yoĝli oĝ ongli ravishda boshqariladigan va tartibga solinadigan bozor iqtisodiyoti deb tan olindi va aksariyat davlatlar shu yoĝlni tanladilar. Lekin bunday bozor iqtisodiyotiga oĝtish yoĝllari (modellari) xilma-xil boĝlib, ularning umumiy va xususiy tomonlari farqlanadi. Jahon tajribasida bozor iqtisodiyotiga oĝtishning barcha yoĝllari umumlashtirilib, quyidagi uchta asosiy turga boĝlinadi:

1. Rivojlangan mamlakatlar yoĝli; 2. Rivojlanayotgan mamlakatlar yoĝli; 3. Sobiq sotsialistik mamlakatlar yoĝli. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar haqida gaplashar ekanmiz ular orasidagi taffavutlarga kŏz tashlamasak ham bŏlmaydi. Keling birgalikda tahlil qilamiz. Men biron-bir narsani yoritib berishdan oldin, u haqida ozroq ma'lumot berish yaxshi deb Őylayman. Biz hozir Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarni

solishtirdik, endi sobiq satsialistik mamlakatlarga  
ötamiz.

**Sobiq Sovet davlatlari (sobiq Sovet Ittifoqi nomi bilan tanilgan<sup>[1]</sup>) 1991-yilda Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi parchalanganidan keyin qayta paydo bo'lgan 15 ta suveren davlatlardir.**



Sobiq Sovet davlatlari:

1. Armaniston
2. Ozarbayjon
3. Belarus
4. Estonia
5. Gruziya
6. Qozog'iston
7. Qirg'iziston
8. Latviya
9. Litva
10. Moldova
11. Rossiya
12. Tojikiston
13. Turkmaniston
14. Ukraina
15. O'zbekiston

Bizning mustaqil diyorimiz, vatanimiz ham jahon tajribasida bozor iqtisodiyotiga ötishning sobiq satsialistik mamlakatlar yõliga kiradi.

Hozirda uzoq davr mobaynida ijtimoiy xo'jalikni ma'muriy buyruqbozlik prinsiplari asosida yuritib kelgan, keyin-chalik ularga bozor mexanizmlarini uyg'un-lashtirish orqali o'ziga xos o'tish yo'lini yaratgan mamlakatlar tajribasini ham alohida ko'rsatish mumkin. Jumladan, Xitoy, Vetnam kabi ilgari faqat ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlar bugungi kunda tub islohotlar orqali samarali bozor iqtisodiyotini vujudga kel-tirish borasida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar. Bularning barchasi bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llarining o'ziga xos xususiyatlaridir.

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, bozor iqtisodiyotiga **revolyusion yo'l** bilan, ya'ni jadal usulda yoki **evolyusion yo'l** bilan, ya'ni bosqichma-bosqich o'tish mumkin. Birinchi holda, tub islohotlarni o'tkazish, avvalgi tizimni va tarkib topgan iqtisodiy munosabatlarni birdaniga va batamom sindirish yo'ni, to'ntarish yasash talab etilib, «karaxt qilib davolash» usuli («shokovaya terapiya») deb nom oldi. Eski iqtisodiy munosabatlarni bosqichma-bosqich yangi bozor munosabatlariga aylantira borib, larzalarsiz, shikastsiz samarali bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish mumkin. Islohotlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, evolyusion yo'l kamroq ijtimoiy larzalarga olib keladi, ancha izchil va muqarrardir. Bizning mustaqil demokratik davlatimiz bozor iqtisodiyotiga ötishning

evolutsion yōlini ya'ni bosqichma bosqich o'tishni tanladi. Nega aynan evolutsion yōl, revalutsion emas degan savol barchamizga tuğulishi mumkin albatta? Bu savolga men qōrqmay javob berolamanki, O'zbekiston o'z xalqini, jismoniy va yuridik shaxslarini, ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarini huquq va erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish umuman aytganda inson qadrini himoya qilish uchun evolutsion yōlni tanladi. Buning yaqqol isboti bu yil 2023-yilni prezidentimiz "Inson qadriga e'tibor va sifatli ta'lim" yili deb elon qildilar.

Tartibga solinadigan bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llarigina emas, balki uning andozalari ham xilma-xildir. Eng avvalo, ular shunday bozor iqtisodiyoti vujudga keltirilayotgan va amal qilib turgan mamlakatlarning milliy xususiyatlari va anʼanalari bilan farq qiladi. Shu boisdan bozor iqtisodiyotining ma'lum andozalari ularni amalga oshiruvchi muayyan mamlakatga mansubligiga qarab ajratiladi. Masalan, Germaniya, Janubiy Koreya, Turkiya, Argentina, Polsha andozalari va hokazo.

Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan hozirgi zamon bozor iqtisodiyotiga o'tishning zarurligi iqtisodiy o'sish ekstensiv omillaridan foydalanish imkoniyat-larining tugab borishi bilan notovar iqtisodiyotning amal qilish layoqatining pasayishi orqali ifodalanadi.

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi ikkita muhim kamchilikka ega:

uning moslashuvchan emasligi, ro'yi berayotgan o'zgarishlarga juda sekinlik bilan moslashib borishi;

mehnatkashlarda moddiy qiziqish va xo'jalik yuritish tashabbuskorligining yo'qligi oqibatida samaradorlikning o'ta darajada pasayib ketganligi.

Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o'tish ko'plab mamlakat-larda umumiy tendensiyaga ega. Bu jarayon iqtisodiyotni erkinlashtirish, chuqur institutsional (eng avvalo, mulkchilik munosabatlarida) tub o'zgarishlarni o'z ichiga oladi, biroq, bir vaqtning o'zida moliyaviy barqarorlashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirishini taqozo etadi. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimini o'zgartirish mazkur tizim asosining o'zgarishini hamda uni sifat jihatidan farq qiluvchi bozor tizimiga almashtirilishini anglatar ekan, bunday turdagi o'zgarishlarni **tizimiy islohotlar** deb atash maqsadga muvofiq bo'ladi. O'tish davrida bozor iqtisodiyotini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

**Iqtisodiyotni erkinlashtirish. Erkinlashtirish** - bu xo'jalik hayotining barcha sohalaridagi to'siq hamda cheklovlarni, shuningdek, davlat nazoratini keskin ravishda qisqartirish yoki bekor qilishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimidan iborat. U butun iqtisodiyotga tatbiq etilib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda davlat monopoliyasini bekor qilish;

resurslarning markazlashgan holdagi taqsimotini tugatish;

narxlarning asosan, talab va taklif nisbati asosida shakllantirilishiga o'tish;

ichki va tashqi bozorlarda transaktsion bitimlar ustidan davlat nazoratini pasaytirish.

Iqtisodiy erkin davlatlarhaqida yana qōshimcha qilib quyidagilarni ma'lumot sifatida aytolamanki, Gonkong 1-o'rinda, O'zbekiston - 164

Iqtisodiy erkin davlatlar: Gonkong 1-o'ringda, O'zbekiston - 164

Gonkong qatorasiga 18 marta jahondagi eng erkin iqtisod deya tan olinmoqda. Heritage Foundation tuzgan yillik ro'yxatda Gonkong jahondagi eng erkin iqtisodlar orasida yana birinchi o'rinni egallagan. Singapur ikkinchi o'ringda, uning orqasidan Avstraliya, Yangi Zelandiya va Shveysariya ergashgan. 179ta mamlakatni o'rganib chiqqan ro'yxatda O'zbekiston 164-o'rinni egallagan. Rossiya esa 144-o'ringda. Belorussiya va Ukraina Rossiyadan ham repressivroq iqtisodlar qatorida 153 va 163-o'rinlarni egallashgan. Qirg'iziston Marokash va Dominikan Respublikalari o'rtasida 88-o'ringda, lekin avvalgi yillarga qaraganda u yerda biznes yuritish uchun erkinliklar kamaygani qayd qilingan. Iqtisodiy erkinliklar indeksi qonunlarning sifati, ularning samarasi, nazorat qiluvchi hukumat rasmiylari va idoralarning soni, hamda bozorlarning naqadar ochiqligiga asoslanib tuziladi. O'zbekistonning o'zni o'tgan yilgi ro'yxatdagidan o'zgarmagan. U Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi 41 davlat orasida 37-o'ringda va undagi iqtisodiy erkinliklar "o'rtacha ko'rsatkichdan ancha past" deya tasvirlangan. "O'zbekiston iqtisodiy erkinliklarning ko'p jabhalarida yomon ko'rsatkichlarga ega bo'lib kelmoqda. Mazmunli islohotlarning yo'qligi va iqtisodiy ekspansiya uchun energiya sektoriga qaramlikning davom etishi katta ko'lamli iqtisodiy taraqqiyotga yo'l ochib bermagan", deyiladi hisobotda

**Iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish va raqobat muhitini yaratish.** Bu yo'nalish quyidagi jarayonlarning amalga oshirilishini taqozo etadi:

barcha iqtisodiy agentlarning ish faolligi uchun teng imkoniyat va sharoitlar yaratilishi; bozorga xorijiy raqobatchilarning ham kirishi uchun imkon berilishi;

kichik biznesning rivojlanishiga halaqit beruvchi ma'muriy to'qsionlarni olib tashlash, imtiyozli kreditlar berish orqali qo'llab-quvvatlash va tarmoqqa kirishidagi to'qsionlarni pasaytirish;

tabiiy monopoliyalarning narx va mahsulot sotish siyosatini tartibga solish va boshqalar.

**Institutsional o'zgarishlar-davlat tomonidan mulkchilik, mehnat, moliyaviy, ijtimoiy va boshqa sohalarda yangi iqtisodiy institutlarni shakllantirish, eskilariniyo'qotish, mavjudlarini transformatsiyalash bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar, xatti-harakatlar.** Mazkur o'zgarishlar quyidagi sohalarni qamrab oladi:

mulkchilik munosabatlarini o'zgartirish, jumladan, xususiy sektorni yaratish;

bozor infratuzilmasini (tijorat banklari, tovar va fond birjalari, investitsiya fondlari va h.k.) shakllantirish;

iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning yangi tizimini yaratish;

bozor sharoitlariga mos tushuvchi xo'jalik qonunchiligini qabul qilish va boshqalar.

Keling endi bu sohada prezidentimizning fikrlari hilan ham tanishib chiqsak. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston" nomli gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javob berdilar.

Savol. Muhtaram Prezident, avvalo, gazetamiz uchun intervyu berishga rozilik bildirganingiz uchun Sizga minnatdorlik izhor etamiz.

Ma'lumki, keyingi besh yil davomida mamlakatimizda keng miqyosdagi demokratik o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. "Yangi O'zbekiston" degan tushuncha real voqelikka aylanmoqda. Siz davlat boshlig'i, ana shu ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tashabbuskori va ularning markazida turgan islohotchi rahbar sifatida bu yangilanishlarning mazmun-mohiyatini birinchi navbatda nimalarda ko'rasiz? Javob. Avvalo shuni aytish kerakki, o'z yurtida ozod va erkin hayot, adolatli jamiyat barpo etishdek ulkan maqsadni o'z oldiga qo'ygan har qanday xalq, har qanday millat og'ir, mashaqqatli va murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi. Kelajakka katta umid va ishonch bilan qarab, hamisha sabr-matонат bilan yashagan o'zbek xalqi ham 1991-yil 31-avgustda muqaddas orzusiga erishdi – jonajon Vatanimiz o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritdi. Nasib etsa, yana sanoqli kunlardan keyin ana shu qutlug' sananing 30 yilligini ulkan shodiyona sifatida keng nishonlaymiz. Bu shonli bayram oldidan mamlakatimizda katta tayyorgarlik ishlari amalga oshirilmoqda. Joylarda keng ko'lamli bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari shiddat bilan olib borilmoqda. Jumladan, poytaxtimizga tutash 100 gektardan ortiq ulkan hududda "Yangi O'zbekiston" bog'i hamda betakror Mustaqillik majmuasi jadal sur'atlar bilan bunyod etilmoqda. Nasib etsa, bu yil eng ulug', eng aziz bayramimizni mana shu yangi maydonda o'tkazamiz. Hech shubhasiz, istiqlol yillarida yurtimizda yangi davlat va jamiyat qurish yo'lida tarixiy ishlar amalga oshirildi, mard va olijanob xalqimizning bukilmas irodasi va ulkan salohiyati bilan katta marralar zabt etildi. Tarixan qisqa muddatda mamlakatimiz Konstitutsiyasi – Asosiy qonunimiz ishlab chiqildi va qabul qilindi. Vatanimiz suveren davlat sifatida jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egalladi. O'zbekistonda zamonaviy davlatchilik asoslari yaratilib, konstitutsiyaviy tuzumga asos solindi. Davlat hokimiyatining uchta mustaqil tarmog'i – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari qaror topdi. Tom ma'nodagi konstitutsiyaviy davlat barpo etildi. O'zbekiston Respublikasining suvereniteti va davlat mustaqilligini, sarhadlarimiz daxlsizligi, xalqimizning tinch-osoyshta hayoti hamda milliy manfaatlarimizni ishonchli himoya qilishga qodir bo'lgan Qurolli Kuchlar tashkil etildi. Milliy valyutamiz – so'm joriy etildi va oltin-valyuta zaxiralarimiz shakllantirildi. Qadimiy tariximiz, boy madaniy merosimiz, milliy-diniy qadriyatlarimiz, o'zligimiz tiklandi. Mana shunday unutilmas tarixiy jarayonlarda faol ishtirok etish nasib etganidan baxtiyorman. Mustaqil taraqqiyot borasida erishgan ulkan yutuqlar bilan birga, yo'limiz ayrim xato va kamchiliklardan ham xoli bo'lmaganini ochiq aytish lozim. Mustabid tuzumdan voz kechib, demokratik jamiyat barpo etishga qaratilgan jarayonlar, murakkab va tahlikali davrning o'zi turli muammo va vazifalarni oldimizga ko'ndalang qo'ydi. Ularni muvaffaqiyatli hal etish uchun bilim va tajribamiz, iroda va qat'iyatimiz ba'zan yetsa, ba'zida yetmagan holatlar ham bo'ldi. Shu bois mamlakatimiz taraqqiyotini yangi, yuksak bosqichga ko'tarish, buning uchun yangi islohotlarni amalga oshirish obyektiv zarurat, eng muhim strategik vazifaga aylandi. Darvoqe, "yangi" degan so'zning biz uchun alohida ahamiyati bor. Masalan, eng ko'hna bayramlarimizdan biri Navro'z – Yangi kun deb atalishini esga olaylik. Ushbu qadimiy bayram bilan bog'liq qadriyat va an'analar hayotimizga shu qadar singib ketganki,

xalqimiz asrlar davomida, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy aytganlaridek, “Har tuning qadr o’lubon, har kuning bo’lsin Navro’z!” degan ezgu tilaklar, pok niyatlar bilan yashab keladi.Yoki o’tgan asrning boshlarida yurtparvar, millatparvar bobolarimiz “jadidchilik”, ya’ni, yangilanish va erkinlik, adolat va tenglik, ilm-ma’rifat va milliy o’zlikni anglash g’oyalarini bayroq qilib, kurash maydoniga mardona chiqqanlarini barchamiz yaxshi bilamiz. Bu ulug’ zotlarning maqsadi – jaholat va qoloqlik girdobida qolib kelayotgan Turkiston xalqini dunyoviy ilm-fan, ilg’or kasb-hunarlar bilan qurollantirib, umumbashariy rivojlanish yo’liga olib chiqishdan iborat edi.Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usuldagi maktablar, teatr, kutubxona va muzeylar, gazeta va jurnallar, Turkiston farzandlarini chet ellarga o’qishga yuborish maqsadida tuzilgan xayriya jamiyatlari xalqimizni necha asrlik g’afolat uyqusidan uyg’otdi, milliy ozodlik harakati uchun beqiyos kuch berdi. Afsuski, yurtimizda bolsheviklar diktaturasi o’rnatilgani, chor mustamlakachilik siyosati yangicha shaklda davom ettirilgani ma’rifatparvar bobolarimizga o’z maqsad-muddaolarini to’liq amalga oshirish imkonini bermadi. Lekin ularning ezgu orzu-niyatlari xalqimizning qon-qonida, tarixiy xotirasida saqlanib qoldi va hanuz yashamoqda, desak, ayni haqiqatni aytgan bo’lamiz.Shu ma’noda, bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan “Yangi O’zbekiston” g’oyasi zamirida ana shunday ulug’ ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi uyg’onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adashmagan bo’lamiz.Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, har qaysi xalq hayotidagi ma’naviy uyg’onish jarayonlari milliy o’zlikni anglashga olib keladi hamda mamlakatning iqtisodiy, madaniy taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradi. Bunday ijtimoiy noyob hodisa “Renessans” – uyg’onish, qayta tiklanish, yuksalish deb atalishi barchamizga ayon.Ma’lumki, bugungi O’zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg’onish davriga – Birinchi (ma’rifiy – IX-XII asrlar) va Ikkinchi (Temuriylar – XIV-XV asrlar) Renessansga beshik bo’lgan. Bu – jahon ilm-fanida o’z isbotini topgan va tan olingan tarixiy haqiqatdir.Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg’onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun “Yangi O’zbekiston” va “Uchinchi Renessans” so’zlari hayotimizda o’zaro uyg’un va hamohang bo’lib yangramoqda, xalqimizni ulug’ maqsadlar sari ruhlantirmoqda.Bugungi kunda O’zbekiston demokratik o’zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib bormoqda. Aynan mana shu jarayon men uchun islohotlarimizning eng katta natijasidir. Chunki, maqsadning aniqligi – harakatlar samarasini ta’minlaydigan eng muhim mezondir.Agar biz bundan besh yil oldin qabul qilgan Harakatlar strategiyasining tub mazmun-mohiyatini muxtasar ifoda etadigan bo’lsak, ushbu noyob hujjatda o’z oldimizga Yangi O’zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek buyuk vazifalarni strategik maqsad qilib qo’yg’an edik.Ta’kidlash kerakki, Yangi O’zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo’lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatning o’zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to’la javob beradigan obyektiv zaruratdir.Yangi O’zbekiston –

demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norma va prinsiplarga qat'iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do'stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlatdir. O'tgan tarixan qisqa davrda islohotlar tufayli erishgan natijalarimiz haqida uzoq gapirmoqchi emasman. Bu mavzuda mamlakatimiz hamda chet el ommaviy axborot vositalari orqali nufuzli davlat va siyosat arboblari, ekspert va tahlilchilarning fikrlari muntazam e'lon qilib kelinmoqda. Bunday xolis baholar barchamizni quvontiradi. Ayni vaqtda shuni ta'kidlashni istardimki, biz bu demokratik o'zgarishlarni kimlargadir yoqish, maqtanish, turli reytinglarga kirish uchun emas, aksincha, demokratik jarayonlar o'zimizga suv bilan havodek zarur bo'lgani uchun, xalqimiz, avvalambor, yosh avlodimizning bugungi hayoti va ertangi istiqbolini o'ylab, milliy manfaatlarimiz yo'lida amalga oshirmoqdamiz. Biz – O'zbekiston fuqarolari jamiyatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasi shiddat bilan o'zgarib, hayotimizda yangicha munosabatlar, yangi imkoniyat va qadriyatlar shakllanayotganini hammadan ham ko'proq his etmoqdamiz. Ayniqsa, "inson huquq va erkinliklari", "qonun ustuvorligi", "ochiqlik va oshkoralik", "so'z erkinligi", "din va e'tiqod erkinligi", "jamoatchilik nazorati", "gender tenglik", "xususiy mulk daxlsizligi", "iqtisodiy faoliyat erkinligi" singari fundamental demokratik tushunchalar va hayotiy ko'nikmalar hozirgi vaqtda real voqelikka aylanib borayotgani e'tiborlidir. Bir haqiqatni ochiq tan olishimiz lozim: vaqt o'tishi bilan islohot jarayonlari tobora kengayib bormoqda, shiddatli zamon oldimizga yana-da ulkan vazifalarni qo'ymoqda. Hayotning o'zi bizni ko'p narsaga o'rgatmoqda. Shu sababli biz doimiy izlanishdamiz. Izlanish bor joyda yutuqlar bilan birga kamchilik va nuqsonlar ham bo'lishi tabiiydir. Eng asosiysi, "Harakatda – barakat" deganlaridek, biz eng qiyin bosqichdan o'tdik, ya'ni, yo'limizni aniq belgilab, katta ishlarni boshladik. Endi hamma gap islohotlar yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish va mantiqiy yakuniga yetkazishda. Bu albatta oson emas, ammo biz bunga qodirmiz. Muhimi, keyingi yillarda bunday ulkan va murakkab vazifani amalga oshirish uchun yetarli siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-institutsional zamin yaratildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-2026-yillarni o'z ichiga oluvchi Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini 1-yonalish 3-maqsadida ham institutsional asoslarni zamon talablariga moslashtirish to'g'risida so'z yuritganlar.

**Tarkibiy o'zgarishlar.** Tarkibiy o'zgarishlar birinchi navbatda iqtisodiyot va uning alohida tarmoqlari tarkibida oldingi tizimdan qolgan nomutanosibliklarni yumshatish yoki bartaraf etishga yo'naltirilgan. Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini qayta qurishdan asosiy maqsad o'z ichki va tashqi bozorlarda to'lovga qodir talabga mos bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarilishini rivojlantirishdan iborat.

**Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash.** Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash o'z ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon. Diversifikatsiya o'z ishlab chiqarishning samaradorligini

oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohasini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko'paytirish, ularning sifatini takomillashtirish.


**Makroiqtisodiy, asosan, moliyaviy barqarorlashtirish.** Aslini olganda bu ja-rayon tizimiy islohotlar qatoriga kirmaydi, chunki u bozor iqtisodiyoti barqaror amal qilayotgan mamlakatlarda ham tez-tez o'tkazilib turadi. Bu yo'nalishning muhim ahamiyati shundan kelib chiqadiki, ma'muriy-buyruqbozlik tizimining inqirozi eng avvalo va kuchli ravishda moliyaviy sohada, ayniqsa yuqori inflyatsiya shaklida namoyon bo'ladi. Inflyatsiyaning uzoq vaqt mavjud bo'lishi bozor munosabatlarining me'yorda qaror topishiga to'sqinlik qiladi, shuning uchun uni bartaraf etish o'tish davri iqtisodiyoti uchun o'ta muhim hisoblanadi. Makroiqtisodiy barqarorlashtirish chora-tadbirlari tizimiga pul emissiyasini cheklash, davlat budjeti taqchilligini qisqartirish, ijobiy foiz stavkasini ta'minlash va boshqalar kiradi.

**Aholini ijtimoiy himoyalashning bozor xo'jaligiga mos bo'lgan tizimini shakllantirish.** Bu tizim aholining nisbatan muhtoj qatlamini aniq ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga o'tishga yo'naltirilgan.

Bozor tizimining ko'rsatib o'tilgan asosiy unsurlari shakllanishining yakuniga yetishi o'tish davri tugaganligidan darak beradi.

Biz O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish rejasini bilib oldik. Endi yurtimizdagi iqtisodiy ahvol haqida gaplashsak: Diagrammamizdan ham ko'rinib turibdiki 2020 yilda Yaimni o'sishi karantin sababli davlatimiz ushbu yilda kirim deyarli qilmay haddan ziyod ko'p chiqim qilganligi hisobiga minusga ziyon ko'radi. Ushbu yil nafaqat biz uchun balki butun dunyo uchun sinovli yil bo'ldi desak mubola'ga bo'lmaydi.

O'zbekiston iqtisodiyoti 30 yil mobaynida qanday o'zgardi?





30 yil davomida sobiq Sovet Ittifoqi mamlakatlari YAIMining umumiy hajmi uch barobardan ziyodga o'sdi. 2020 yilda O'zbekiston real YAIM hajmi 1991 yilga nisbatan 3,4 baravarga ko'paydi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM ko'rsatkichi 2,9 foizga oshdi. Mamlakat eksporti tarkibida paxta xomashyosi ulushi keskin qisqarib, oltin yetakchi eksport mahsulotiga aylandi. So'nggi 30 yil davomida sobiq Sovet Ittifoqi mamlakatlari yalpi ichki mahsuloti (YAIM) umumiy hajmi uch barobardan ziyodga o'sgan. Bu haqda RBK o'zining mintaqadagi iqtisodiy jarayonlar ustidagi izlanishlari natijalariga asoslanib xabar qildi.

Xususan, 1990 yilda Sovet Ittifoqi iqtisodiyoti hajmi BMT tomonidan o'sha paytdagi narxlarda 791 mlrd dollarga baholangan. 2021 yilda esa sobiq ittifoqning 15 ta respublikasining YAIMlari umumiy hajmi 2,5 trln dollarni tashkil etdi. Davlat statistika qo'mitasi 2020 yilgi O'zbekiston Respublikasining demografik holati bo'yicha dastlabki ma'lumotlarni e'lon qildi, deb xabar bermoqda Kun.uz muxbiri. Statqo'm ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonning doimiy aholisi soni 2021 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, 34 million 558,9 ming kishini tashkil etadi. Jumladan, shahar aholisi soni 17 million 487,5 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 50,6 foiz), qishloq aholisi soni 17 million 71,4 ming kishi (49,4 foiz)ni tashkil etdi. Ta'kidlanishicha, 2020 yilda 841,8 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 24,6 promilleni tashkil etdi hamda 2019 yilga nisbatan 0,3 promillega oshganligi kuzatildi (2019 yilda 24,3 promilleni tashkil etgan). Ma'lumot uchun, tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa, bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim. Respublika hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, hududlarning respublika jami aholisi sonidagi ulushi bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Samarqand viloyatida 11,4 foizni, keyingi o'rinlarda Farg'ona viloyati 11,1 foizni, Qashqadaryo viloyati 9,7 foizni va Andijon viloyati 9,2 foizni tashkil etgan. Joriy yil boshiga ko'ra, respublika doimiy aholisi sonining 31,0 foizi mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 58,2 foizi mehnatga layoqatli yoshdagilar va 10,8 foizi mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Hisobotda 2020 yilda 175,6 mingta o'lim qayd etilgani ma'lum qilindi. Unga ko'ra 2020 yilda 21 ming «ortiqcha o'lim» qayd etilgan - 2019 yilda o'lim holatlari soni 154,6 mingtani tashkil etgan. Shunda, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti 5,1 promilleni tashkil etgan hamda 2019 yilga nisbatan 0,5 promillega oshganligi kuzatildi (2019 yilning yanvar-dekabr oylarida 4,6 promille bo'lgan).

Sovet Ittifoqi parchalanishidan oldin uning iqtisodiyoti nominal jihatdan dunyodagi ikkinchi yirik iqtisodiyot hisoblanganligiga qaramay, aksariyat tarixchilar va iqtisodchilar 1960–1980 yillarda Sovet iqtisodiyotining o'sish sur'ati muntazam ravishda pasayib borganligini ta'kidlashgan. BMT hisob-kitoblariga ko'ra, 1990 yilda jahon miqyosidagi YAIMning 4,6 foiz qismi Sovet Ittifoqi hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, hozirda sobiq ittifoq tarkibiga kirgan o'n beshta mamlakat YAIMlarining umumiy hajmi jahon YAIMining qariyb

2,6 foizini tashkil etadi. Ayni paytda, Xalqaro valyuta fondi xarid qobiliyati pariteti (PPP) asosida sobiq Sovet Ittifoqi barcha mamlakatlari YAIMlarining jahon iqtisodiyotidagi ulushini yuqoriroq — 4,7 foiz deb baholaydi. PPP — bu turli mamlakatlar valyutalarini «tovarlar savati» yondashuvi orqali taqqoslash imkonini beruvchi ko'rsatkich. PPP iqtisodchilarga mamlakatlar YAIMlari, ular o'rtasidagi iqtisodiy samaradorlik va turmush darajasini taqqoslash imkonini beradi. PPP ikki yoki undan ortiq valyutalarning muayyan tovarlar va xizmatlar to'plamini xarid etish qobiliyatlari nisbatini ifodalaydi.

Qayd etilishicha, Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari, shuningdek, Ozarbayjon ham xomashyo eksportiga qaramligicha qolmoqda. Xususan, Qirg'izistonning eksportida yetakchilik qilgan elektroenergiya o'rnini 2019 yilga kelib oltin egallagan — jami eksportga nisbatan 42 foiz. Qozog'istonning asosiy eksport mahsuloti neft xomashyosi bo'lib, 25 yil mobaynida jami eksportdagi ulushi 21 foizdan 58 foizgacha oshgan. Turkmaniston eksportida asosiy o'rin tutuvchi tabiiy gaz yetkazib berishning jami eksportdagi ulushi 1997 yildagi 36 foizdan 2019 yilga kelib 81 foizgacha oshdi. Ta'kidlash joizki, 1997 yilda Turkmanistonning Rossiyaga eksportining 66 foizini tabiiy gaz tashkil qilgan bo'lsa, 2019 yilga kelib kalava-ip asosiy eksport mahsulotiga aylangan. Avvalroq yaqin yillarda Turkmaniston Xitoyga tabiiy gaz yetkazib berishda yetakchilikni saqlab qolayotganligi haqida xabar bergan edik. Tojikiston eksporti tarkibida asosiy mahsulot alyuminiyilgicha qolmoqda, garchi uning umumiy hajmdagi ulushi 2 barobardan ko'proqqa qisqargan bo'lsa ham. Shuningdek, mamlakatning Rossiyaga eksporti bilan bog'liq vaziyat O'zbekistonnikiga o'xshash: asosiy eksport mahsuloti — paxta tolasi o'rnini kalava-ip egallagan.

Marhum birinchi prezidentimiz I.A. Karimov ishlab chiqqan 1996-2016 yilni o'z ichiga oluvchi o'zbek modulida ham O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi 5 tamoyilning biri qilib belgilanganlar. Xuddi mana shu yerdan ham bilsak bo'ladiki, O'zbekistonda nafaqat O'zbekistonda balki deyarli barcha mamlakatlarda bozor iqtisodiyotini sakllanishi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Xatto u bizning mamlakatimiz rivojlanishini 5 tamoyillidan biriga kirgizilgan.

**Xulosa:** Har qanday baland marrani zabt etish uchun qiyin tōsiqlardan o'tish lozim bo'lganidek majburiy buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tish ham oson ish emas. Nafaqat o'tish balki o'tish uchun yo'lni tanlash ham bir qiyin qiyomat. Davlatimiz Prezidenti I.A. Karimov aytganidek, "Mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli strategik maqsadni amalga oshirishning mantig'i mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlangan va O'zbekistonning jahon bozoridagi raqobatdoshligini oshirish va mavqeini mustahkamlashga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgarishlar va yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalarini jadal rivojlantirish siyosatini 2011 yildagi asosiy ustuvor yo'nalish sifatida davom ettirishni taqozo etilmoqda" Iqtisod siyosatdan ustun. Iqtisod inson paydo bo'lganida yaralgan. Iqtisod- (greklarda) uy xōjaligini yuritish qonunlari, (arab leksikonida) tejamkorlik degan ma'nolarni anglatadi. Shunday ekan iqtisodning umri yoki davlat iqtisodining umri sshu davlatning umriga bo'g'liqdir. Prezidentimizning iqtisod sohasida juda ko'plab keltirgan

fikr va mulohazalari mavjud. Hattoki prezidentimiz qatnashgan yoki o'tkazgan har bir majlislarida iqtisod sohasiga albatta bir to'xtaydilar. Hattoki kuni kevhga bo'lib o'tgan majlisda ham mamlakatimiz iqtisodi haqida so'z va fikrlar yuritilindi. Eng quvonarlisi shundaki bu yilgi O'zbekiston YAImi 80 mlrd. dollar bo'libdi. O'zbekiston shu kunga yetib kelguncha o'zuncha qiyinchilikk ko'rdi. SSR davrida xalqimiz madaniyati, dardi, alami yer bilan yakson qilingandi, ular faqat shu narsalar bilan chirkalanibgina qolmay davlatimiz iqtisodiyotini rivojiga ham katta to'siq bo'lgan.

SSR davrida unga avtanom bo'lgan xalqning barchasi ishlab chiqargan tovor xizmatlarini markazga buyruq orqali yuborishgan va shu to'plangan ozuqalardan o'ndan birigina xalqqa tarqatilgan. Hozirchi hozir unday emas. SSR davridagi siyosat va boshqala narsalar inson qadrini poymol qilgan. Hozir ozuqa markazga to'planmaydi, insonga ishlaganiga va mehnatiga yarashasini oladi. Bizning davlat SSR davridan beri juda ko'plab yutuqlarga erishdik, ayniqsa iqtisod sohasida. Hammasidan ham eng mujimi biz ozodlikka erishdik..!!!!

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Bajenova V.S., Ioxin V.Ya. Ekonomicheskaya teoriya. Mikroekonomika – 1, 2. – M.: Izdatelsko-torgovaya korporatsiya «Dashkov i K°», 2006. – 934 s.
2. Kudina M.V. Osnovy ekonomiki. – M.: FORUM: INFA-M, 2006. – 352 s.
3. Kulikov L.M. Ekonomicheskaya teoriya. M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2006. 432 s.
4. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: «Fan va texnologiya». 2005. 186 b.
5. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. T.: «Moliya». 2002. 174 b.
6. Borisov Ye.F. Ekonomicheskaya teoriya: 2-ye izd., pererab. i dop. M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2005. 230 s.
7. Ioxin V.Ya. Ekonomicheskaya teoriya. M.: ekonomist, 2005. 356 s.
8. Kulikov L.M. Ekonomicheskaya teoriya. M.: TK Vebli, Izd-vo Prospekt, 2005. 421 s.
9. Xodiev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - T.: Barkamol fayz media, 2017. - 783 bet.
10. O'lmasov A., Vaxobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - T.: «Iqtisod-moliya», 2014. 480 bet.
11. Shodmonov Sh.Sh., G'ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - T.: «Iqtisod-moliya», 2010.-728 bet.
12. Shodmonov Sh.Sh., Rahmatov M. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - T.: «Iqtisod-moliya», 2010.-728 bet. milliycha.uz
13. imlo.uz
14. uz.wikipedia.uz
15. uz.text.com